Ilm-fan va yoshlar: mahorat darslari

O’zbekiston yosh tarixchilarining birinchi yozgi o’qishlarining to’rtinchi kunida navbatdagi mahorat darsi "O’zbek xalqi va davlatchiligi tarixini o’rganish da arxeologiya manbalarining ahamiyati" mavzusida bo’lib o’tdi.

Ma’ruzachi tarix fanlari nomzodi Feruza Shomukaramova.

Mahorat darsi davomida O’zbekistonda arxeologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari, arxeologik tadqiqotlar tarixshunosligi va arxeologiya manbalarining ahamiyati to’g’risida ma’lumotlar berildi.

Xususan, Turkistonda qadimshunoslik fanining asoslari, uning shakllanishi va rivojlanishida milliy ziyolilar va mutaxasislarning o’rni to’g’risida muhim fikr va mulohazalar taqdim qilindi.